



MEBEL DIZAYNINI LOYIHALASHDA GRAFIK FANLARNING O‘RNI

Shernazarova Marhabo Mirzaaxrorovna

Nizomiy nomidagi TDPU 1 kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy mebel dizayni sohasidagi innovatsiyalarni tahlil qiladi va bu boradagi mavjud muammolar hamda ularning yechimlarini ko‘rib chiqadi. Tadqiqot, ayniqsa, bo‘lajak dizaynerlar uchun dolzarb bo‘lib, ularning kasbiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi bir qancha omillarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: ekologik material, innovatsiya, dizayner, raqamli texnologiyalar, zamonaviy mebel, xomashyo.

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy mebel dizayni sohasining rivojlanishi O‘zbekistonda bo‘lajak dizaynerlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ayniqsa, mebel dizayni sohasida, bo‘lg‘usi dizaynerlar zamonaviy va estetik jihatdan jozibali mebellar yarata olishlari uchun yangi uslublar, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni o‘rganishlari zarur bo‘lmoqda. Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston”da dizaynerlar sifatida muvaffaqiyat qozonish uchun zamonaviy mebel loyihalarini yaratish bo‘yicha aniq va samarali metodlarni qo‘llash zarurati tug‘uldi. Zamonaviy mebel dizayni sohasida muvaffaqiyat qozonish uchun bo‘lajak dizaynerlar nafaqat yangi texnologiyalar va materiallar bilan tanishishlari, balki kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirishlari kerak. Yangi O‘zbekistonning zamonaviy dizaynerlari o‘z ko‘nikmalarini oshirib, mebel dizayni sohasini yangi darajaga olib chiqish uchun yuqori sifatli ta’lim, amaliy tajriba va yangiliklarga doimiy ravishda moslashishlari zarur. Bularning barchasi O‘zbekistonda dizayn sanoatining global miqyosda rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi [1].

Mebel dizayni inson yashash muhitining estetik va funksional jihatlarini shakllantiradi. Mebellar avvalo foydalanuvchilar uchun qulay va zamonaviy, ekologik toza maxsulotlardan tayyorlangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. So‘nggi yillarda ushbu sohada innovatsion texnologiyalar jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Zamonaviy dizayn sanoatining shakllanishida ekologik materiallardan foydalanish, modulli arxitektura, raqamli dizayn va boshqa ilg‘or texnologiyalar asosiy rol o‘ynamoqda. Shunga qaramay, bo‘lajak dizaynerlar duch kelayotgan bir qator muammolar mavjud. Ushbu maqola ana shu muammolar va ularning samarali yechimlari haqida ilmiy tahlilni o‘z ichiga oladi.

√ Zamonaviy mebel dizaynidagi innovatsiyalar. Raqamli texnologiyalar 3D modellashtirish, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) yordamida mebel dizaynini yaratish usullari keskin o‘zgarib bormoqda. Bu texnologiyalar dizaynerlarga loyihani aniq va realistik tarzda vizualizatsiya qilish imkonini beradi.[2]





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

✓ Ekologik dizayn - biologik parchalanadigan, qayta ishlanadigan va energiyani tejaydigan materiallardan foydalanish dizayn jarayonida tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda. Misol uchun bugun mebel sanoatida shisha, bambuk, dub daraxti po'stlog'idan turli zamonaviy turdagi mebellardan ishlab chiqarishda keng foydalanilmoqda. Bu albatta vaqt o'tishi bilan eski mebellardan atrof-muhitga keltirishi mumkin bo'lgan turli ekologik zararlarni xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, ushbu mahsulotlar narxining arzonligi mebellar tannarxiga ham ijobiy ta'sir etmay qolmaydi. Ekologik materiallardan ishlab chiqilgan mebellar foydalanishda bir qancha qulayliklarni yaratadi, jumladan ularni joyini nisbatan yengil bo'lgani uchun tez va oson ko'chirish mumkin.[3].

✓ Modul va transformatsiyalanuvchi dizayn Hozirgi davrda tor joylar uchun mo'ljallangan, ko'p funksiyali mebel turlari ommalashmoqda. Bu esa shaharlarda yashovchi foydalanuvchilarning ehtiyojlariga moslashishni talab etadi. Bunday zamonaviy transformatsiyalanuvchi mebellarga ayniqsa ko'p qavatli uylarda yashovcha aholi tomonidan ehtiyoj va talab ortib bormoqda. Zamonaviy mebellar ishlab chiqaruvchilar va yosh dizaynerlar e'tiborlarini aynan shu jihatga qaratishlari soha rivojiga munosib hissa bo'lib xizmat qilishi mumkin.

✓ Texnologik yetishmovchiliklar ko'plab dizayn institutlari zamonaviy texnologiyalar bilan to'liq jihozlanmagan. Bu esa talabalar bilimlarining yetarli darajada bo'lmashligiga olib keladi. Ularda amaliy bilimlarning yetishmasligi, faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib qolishga olib keladi.

Muammolar yechimi sifatida takliflar - ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim - Dizayn yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga ishlab chiqarish korxonalari bilan amaliy hamkorlik imkoniyatlari yaratilishi zarur.[4].

✓ Texnologik baza yangilanishi Oliy o'quv yurtlarida raqamli texnologiyalar, 3D printerlar, VR/AR qurilmalari, lazer kesish uskunalar bilan ta'minlangan zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilishi yanada samara beradi.[5].

✓ Innovatsion metodikalarni joriy qilish dars jarayonlarida zamonaviy grafik dasturlarni o'qitish orqali taqqoslash, solishtirish misolida talabalarda tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish mumkin. Quyida bir necha grafik darsliklarning afzallik va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz. Mebel dizaynida grafik dasturlar: **1. AutoCAD dasturi** - afzalliklari: aniqlik va standartlarga muvofiqlik. Unda barcha jarayonlar yuqori aniqlik bilan bajariladi. Shuning uchun ushbu dastur ko'pchilik dizaynerlar tomonidan keng foydalaniladi. Kamchiliklari: murakkab interfeys. Dastlabki o'rganuvchilarda bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi, mebel naqshlarini hosil qilish biroz murakkab jarayonni tashkil etadi.

2. SketchUp dasturi - afzalliklari: foydalanuvchilarga qulaylik: kengaytirilgan kutubxona. Kamchiliklari: cheklangan texnik imkoniyatlar. Bu dastur kuchli operativ xotiraga ega bo'lgan kompyuter vositasini talab etadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



3. Sweet Home 3D - afzalliklari: oddiy interfeys, bepul foydalanish.

Kamchiliklari: cheklangan funksiyalar, aniqlik darajasining pastligi. Mebel ishlab chiqarishi yuqori darajada aniqlikni talab etadi.

4. **Adobe Illustrator**- afzalliklari: yuqori sifatli grafikalar, ko'pchilik tomonidan qo'llanilishi. Kamchiliklari: 3D imkoniyatlarning cheklanganligi: bundan tashqari **ArchiCad** va **ArtCom** dasturlari ham bo'lajak dizaynerlar uchun o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishlarida eng samarali dasturlar hisoblanadi. Hozirgi kunda Andijon, Farg'ona, Namangandagi ko'plab mahalliy mebel ishlab chiqaruvchi sexlarda aynan mana shu dasturlar yordamida ko'plab zamonaviy mebellar ishlab chiqarilmoqda.



1. Rasmda: Shisha va bambuk homashyosidan tayyorlangan zamonaviy mebellar



2. Rasmda Artcom va SketchUp dasturlarida mebel loyihalash jarayoni






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Zamonaviy mebel dizayni sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun dizaynerlar o'z ishlarini nafaqat estetik jihatdan, balki funksional va iqtisodiy jihatdan ham ishlab chiqishlari kerak. O'zbekistonning mebel sanoati yangi bosqichga o'tayotgani sababli, dizaynerlar global bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun innovatsion yondashuvlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun, dizaynerlar o'zlarining loyihalarini to'g'ri targ'ib qilish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish va sifatli xizmatlarni taqdim etishlari lozim. Zamonaviy mebel dizayni va bo'lajak dizaynerlarning loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi O'zbekistonda yuksalish va rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi [6]. Tadqiqotda ko'rsatilgan metodlar va yondashuvlar, dizaynerlarga yangi texnologiyalar, ekologik materiallar va ergonomik tamoyillarni o'rganishda yordam beradi. Biroq, bu jarayon davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va to'siqlarni yengish uchun ishlab chiqaruvchilar, dizaynerlar va ta'lim muassasalari birgalikda samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari kerak. Bu esa Yangi O'zbekistonning mebel sanoatini jahon miqyosida raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Xulosa. Zamonaviy mebel dizayni sohasida bo'lajak dizaynerlarning loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish, O'zbekistonning mebel sanoatini yangi darajaga olib chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda ko'rsatilgan metodlar va amaliy yondashuvlar dizaynerlarga zamonaviy texnologiyalar, ekologik materiallar, ergonomika va estetikani birlashtirishda yordam beradi. Yangi texnologiyalarni o'rganish, amaliy mashg'ulotlar va mentorlikning samarali usullarini qo'llash bo'lajak dizaynerlarni yanada malakali va innovatsion qilish imkonini beradi. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy mebel dizaynining rivojlanishi uchun ta'lim va amaliy tajriba alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun dizaynerlar, ishlab chiqaruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasida yaqindan hamkorlik o'rnatish zarur. Shu tariqa, bo'lajak dizaynerlarni zamonaviy mebel loyihalarini yaratishlari uchun ta'lim sohasida ularni ishlab chiqarishga tayyor yetuk kadr qilib tayyorlashda ilg'or texnologiyalar, ekologik yondashuvlar va ta'limning sifatli tizimini joriy etish orqali Yangi O'zbekistonda mebel sanoatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga erishish mumkin.





Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Kuchmanova, N. (2021). Zamonaviy mebel dizayni: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Abdullaeva, M. (2020). Mebel dizayni va ekologik materiallar. Tashkent: Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi.
3. Mahmudov, A., & Karimov, I. (2022). Innovatsion texnologiyalar va ularning mebel sanoatidagi qo'llanilishi. Toshkent: O'zbekiston davlat texnika universiteti.
4. Jalilov, Sh. (2019). Ergonomika va mebel dizayni. Tashkent: Ta'lim nashriyoti.
5. Tashkent State Institute of Design. (2021). Dizaynerlar uchun amaliy qo'llanma: zamonaviy mebel loyihalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashri.
6. Mebeldizayn.uz (2022). Mebel dizaynidagi so'nggi tendensiyalar. <https://www.mebeldizayn.uz> (yig'ilgan: 15-mart, 2025).

